



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 7

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

December 2024

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
December 2024

Tashkent 2024

LOGOPEDIYANING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Eshqo'ziyeva Gulira'no Bahtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Logopediya haqida bo'lib, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini to'g'irlash va davolash haqida fikrlar berilgan.

Annotation: This article is about Speech Therapy and provides ideas on speech correction and treatment of speech impaired children.

Kalit so'zlar: nutq, faoliyat, talaffuz, leksik, grammatik, tafakkur, xotira, idrok, ruhiy faoliyat, dislaliya, rinolaliya, dizartriya, anartriya, dislaliya.

Key words: speech, activity, pronunciation, lexical, grammatical, thinking, memory, perception, mental activity, dyslalia, rhinolalia, dysarthria, anarthria, dyslalia.

Logopediya (logos va yunoncha. Paideio – tarbiyalash, o'qitish) – pedagogika fani tarmog'i; nutqdagi kamchiliklar (duduqlanish, til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo'llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta'lim va tarbiya vositasida o'rganadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab XVII asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tatbiq etila boshlagan. XIX asr 2-yarmidan bu sohaga mustaqil ravishda, ammo tibbiyot nuqtai nazaridan yondashildi. Asta-sekin nutq faoliyatining tabiati haqidagi ilmiy tasavvur kengaya borib, Logopediya yo'nalishi tubdan o'zgardi, pedagogik mazmun birinchi o'ringa qo'yiladigan bo'ldi. XX asrga kelib Logopediya mustaqil fan sifatida shakllandi, uning maqsad va vazifalari, metodik asos va tamoyillari, boshqa fanlar bilan aloqasi masalalari ishlab chiqildi.

Zamonaviy logopediya maktabgacha yoshdagi bolalar logopediyasi, maktab yoshidagi bolalar Logopediyasi, o'smirlar va katta yoshdagilar logopediyasiga bo'linadi. Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fan sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik-grammatik tuzumi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyati uzviy bog'liqligi bilan belgilanadi. Logopediyaning asosiy vazifalari; nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyati ontogenezini o'rganish, nutq buzilishlarining keng tarqalgani, kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi, alomatlari va darajalarini aniqlash; nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning o'z-o'zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko'rinishdagi faoliyatlarini namoyon qilishga, o'zlarini tutishlariga ta'sirini aniqlash; rivojlanishda turli xil farqlar bo'lgan bolalarda (eshitish, ko'rish, fikrlash qobiliyati hamda tayanch-harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va

buzilishlari xususiyatlarini o'rganish; nutq buzilishlarining pedagogik diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish; nutq buzilishlarini tartibga solish; nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metod va vositalarini ishlab chiqish; nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish; logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Logopediyaning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarida uning nazariy va amaliy yo'nalishlari belgilab berilgan. Logopediya nazariy yo'nalishi nutqdagi buzilishlarni o'rganish, uning sabablarini aniqlash, oldini olish va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish, amaliy yo'nalishi esa ana shu metodlarni tezroq tatbiq etib, mazkur nuqsonlar va ularni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf etishdan iborat. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Logopedlar ma'lum qilishicha, nutqdagi kamchiliklarning paydo bo'lishi, tabiati, inson ruhiyatiga ta'siri turlicha bo'ladi. Masalan, Alaliya, Afaziya, Duduqlanish, Dizartriya kabi nutq nuqsonlari bilish jarayonini, atrofdagi kishilar bilan muomalani qiyinlashtiradi. Bu narsa bolaning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og'ir nutqiy buzilishlar esa insonning aqliy rivojlanishiga, ayniqsa, oliy bilish faoliyati darajalariga, shaxsning shakllanishiga ta'sir etadi, uning harakteridagi tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, nomukammallik tuyg'usi kabi salbiy xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Logopediyaning ahamiyati bolaning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etib, uning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Logopediya nutq buzilishini o'rganish va tuzatishda nutq bilan fikrning o'zaro bog'liqligi haqidagi, bola rivojlanishida umumiy va maxsus qonuniyatlarning o'zaro munosabati to'g'risidagi nazariy qoidalariga, nutq va faoliyatning hamohang rivojlanishi hamda ruhiy kamolotga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi. Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada sodir bo'lishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning tuzilishi va harakatga kelishi to'g'risidagi bilimlardan foydalanadi. Nutqdagi nuqsonlarning alomatlarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibida nutqiy alomat bilan nutqsiz alomatning munosabatini bilish uchun logopediya boshqa fanlar bilan bo'g'liq holda o'rganiladi: tilshunoslik, otorinolaringologiya, psixolingvistika, umumiy va maxsus psixologiya, psixodiagnostika, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya bilan uzviy aloqada ishlaydi. Nutq va eshitish a'zolarining patologiyasi nutqdagi buzilish etiologiyasini aniqlashdan tashqari tibbiy ta'sir vositasida bo'ladigan logopedik ishlarni to'g'ri qo'shib olib borish uchun ham imkon beradi. O'zbekistonda yordamchi maktablar, bolalar poliklinikalari, bolalar bog'chalari va boshqa muassasalarda logopedik yordam ko'rsatiladi. Asosiysi, nutqida nuqsoni bor bolalar uchun alohida bog'chalar, maxsus maktablar mavjud.

Nutqni tushunishni rivojlantirish logopedik ta'sirning asosiy vazifasi passiv lug'at boyligini to'ldirishdan iborat. Bolalarga o'yinchoqlari, tana a'zolari, kiyim-kechaklari, jonivorlar, alohida predmet va hodisalar nomlari va shu kabilarning nomlarini eslab qolish taklif etiladi. Passiv fe'l lug'ati bolaning o'zi tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar nomidan iborat bo'lishi lozim (o'tiribdi, yuribdi, kiyinyapti va hokazo). Bundan tashqari o'ziga yaqin kishilar bajarayotgan xatti-harakat nomlarini ham bilishi lozim, ammo bu lug'at faqat bolaning bevosita bir necha marotaba o'zi kuzatgan xatti-harakatlar nomi bilangina chegaralanishi mumkin. Shuni esda tutish lozimki, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda passiv fe'l lug'ati passiv predmet lug'atidan birmuncha kam bo'lishi mumkin. Shu sababli agar bolalar predmet nomlarini bilsa, u holda imkon qadar tezroq ularni harakat nomlarini tushunishga, shuningdek sodir etilayotgan harakatlar yuzasidan berilayotgan savollarni tushunishga o'rgatish zarur: qayerda? qayoqqa? nima? nimga? qayerdan? kim uchun? Nutqni tushunishni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida bolalardan alohida so'zlarni tushunishning aniqligi talab qilinmaydi, shu sababli qayerga-qayerdan, och-yop va hokazo singari so'zlarni farqlash vazifasi birinchi o'ringa qo'yilmaydi. Qayerda? kimga? va shu kabi savollarni tushunishga o'rgatish jarayonida bolalar dastlab bu so'zlarning turlicha tovush ifodasiga tayanmaydilar, balki savolning keng nutqiy matniga tayanadilar. Buning uchun logoped savolida bolalarga yaxshi tanish bo'lgan «yordam beruvchi» so'z bo'lishi kerak. Shundan so'nggina bolalar bu savollarni yaxshi tushunishga o'rganadilar. Sekin-asta savollardan barcha «yordam beruvchi» so'zlar olib tashlanadi.

Logopedning butun nutqi bolaga qaratilgan savollar bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Bolada faol lug'atida mavjud nutqiy vositalar yordamida kattalar bilan muloqot qilish extiyojini tug'dirish zarur. Bolaning ushlagan, silagan, ko'rgan predmetlari nomini eshitgan, o'zi bajargan harakatlari nomini ko'p marotaba eshitganidan so'ng, boladan tanish predmetni olib kelish yoki shu predmet bilan bog'liq biron bir harakatni bajarishni iltimos qilish mumkin. Agar bola bu iltimoslarni tushunmasa logopedning o'zi predmetni oladi va uning nomini yana bir marotaba takrorlaydi. Gapirmaydigan bolalar bilan ishlashda, bunday bolalarning passiv lug'atini chalg'ituvchi so'zlar bilan to'ldirish tavsiya etilmaydi. Mashg'ulotni o'tkazishda o'yinchoqlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va shu kabilar ko'rgazmali material bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Y. Ayupova. Logopediya. 2007.
2. Muzaffarova, X. (2020). O QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK OYIN VA MASHQLARNI TANLASH TEXNOLOGIYASI. Архив научных Публикаций JSPI.
3. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. Bola va Zamon jurnal. T, (2-2019).

4.Djurayeva, S. (2020). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGI
TEKNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. Архив Научных Публикаций JSPI



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
7-son

Nashr qilingan sana: 27.12.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172